Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317380

Investitsiyalarni samarali boshqarish: Investitsiyalarni boshqarishda, korxona aktivlarining doimiy va zamonaviy holatda bo‘lishi uchun, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga mos ravishda investitsiyaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, korxona o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydigan yangi sohalarga yoki texnologiyalarga investitsiya kiritish orqali amalga oshiriladi.

Aktivlar tuzilmasining optimalligi: Investitsiyalarni optimallashtirish va ularning faqat zarur bo‘lgan faoliyatlarga yo‘naltirilishini ta’minlash, moliyaviy resurslarning to‘g‘ri taqsimlanishini osonlashtiradi. Boshqacha aytganda, aktivlar boshqaruvida investitsiyalarni maqsadli ravishda jalb qilish, korxonaning umumiy samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (2020) https://president.uz/uz/lists/view/2228
2. Ismanov, I. N. Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish. “Classik” nashriyoti. (2021).
3. Biyek, A. A., & Janov, A. I. (Korxonalarda investitsiyalarni boshqarish: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Ekonomika. (2022).
4. O‘zimov, R. S. Moliyaviy boshqaruv va investitsiyalar. Toshkent: Yangi Nashr. (2019)

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MAHSULOT TANNARXINI TAHLIL QILISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Dehqonov Diyorbek Davronbek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti
Buxgalteriya hisobi va auditi 4-kurs talabasi
diyor.rv03@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot tannarxini tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Mahsulot tannarxining shakllanishi, uning to‘g‘ri hisoblanishi va boshqarilishi korxonalarning moliyaviy samaradorligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada mahsulot tannarxini tahlil qilishning amaliy yondashuvlari,

Published: 24.05.2025
Cite this article: Dehqonov Diyorbek Davronbek o‘g‘li (2025). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot tannarxini tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317380
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

zamonaviy raqamli texnologiyalar va xalqaro hisob-kitob standartlari asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning usullari ko‘rsatilgan. Tahlil jarayonida ilmiy yondashuvlar va aniq statistik ma’lumotlar asosida tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: xo‘jalik yurituvchi subyektlar, mahsulot tannarxi, iqtisodiy samaradorlik, raqamli texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik, xalqaro hisob standartlari, rentabellik, raqobatbardoshlik.

Annotation: This article examines ways to improve economic efficiency in business entities by analyzing the cost of goods sold. The formation, accurate accounting, and management of the cost of goods sold are crucial in ensuring the financial efficiency, profitability, and competitiveness of enterprises. The article presents practical approaches to cost analysis, methods to enhance economic efficiency based on modern digital technologies and international accounting standards. The analysis process is supported by scientific approaches and specific statistical data, followed by recommendations.

Keywords: business entities, cost of goods sold, economic efficiency, digital technologies, financial stability, international accounting standards, profitability, competitiveness.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror va samarali faoliyat ko‘rsatishi, asosan, mahsulot tannarxini boshqarishning samaradorligiga bog‘liq. Mahsulot tannarxining to‘g‘ri shakllanishi va boshqaruv usullarining optimal qo‘llanilishi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tannarxning tuzilishi, aylanish jarayoni va likvidlik darajasi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda, balki korxonalarning bozor raqobatida muvaffaqiyatli bo‘lishida ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun mahsulot tannarxini boshqarish samaradorligini oshirish, korxonalarning uzoq muddatli o‘sishi va muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida sifat o‘zgarishlarini amalga oshirmasdan turib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish mumkin emas. Ularni isloh qilish jarayonining mazmuni bozor munosabatlari rivojlanishining qonuniyatlaridan kelib chiqadiki, ularda birlamchi bo‘g‘in (xo‘jalik yurituvchi subyektlar) ga alohida o‘rin berilishi kerak.[1]

ASOSIY QISM

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar xaridor va sotuvchi sifatida faoliyat ko‘rsatib, tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishiga asoslangan raqobat muhiti orqali o‘zaro ta’sir o‘tkazadilar. Baholar yig‘indisi, o‘z navbatida, tushumning hajmini belgilab beradi. Shu bilan birga, xo‘jalik yurituvchi

subyektlar (firmalar, korporatsiyalar va boshqalar) ning moliyaviy holati va bozordagi faolligi, ularning faoliyatida bozor omillarining o‘zgarishi va dinamikasini to‘liq hisobga olish o‘rtasida mustahkam aloqalar mavjud. Bu omillarni e’tiborga olish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yondashuvlarini o‘zgartirishni talab qiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni bozor sharoitlariga moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni bozor iqtisodiyotining to‘laqonli subyektlariga aylantirish orqali moliyaviy isloh qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tganimizga 18 yildan ortiq vaqt bo‘lishiga qaramay, mamlakatimizdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faqat ma’lum bir qismi bozor munosabatlariga to‘liq moslashgan. Ba’zi mutaxassislar fikriga ko‘ra, sanoat korxonalarining faqat chorak qismi bozor iqtisodiyotining to‘laqonli subyektlari sifatida hisoblanishi mumkin.

Yangi sharoit talabiga ko‘ra munosabati bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Faoliyatni bozor talablariga yo‘naltirish va eng yangi texnologiyalarga investitsiyalar asosida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish yo‘li bilan mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini ta’minlash;
- Xo‘jalik yurituvchi subyektlar kapitalini shakllantirish va boshqarish samaradorligini oshirish;
- Xo‘jalik yurituvchi subyektlar rivojlanishini moliyaviy jihatdan ta’minlash va uning moliyaviy barqarorligini oshirish rezervlarini qidirib topish va jalb qilish;
- Ishlab chiqarishning barcha omillaridan samarali foydalanish va mahsulot birligiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlarni kamaytirish asosida ularning daromadlarini o‘stirish yo‘li bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsion jozibadorligini oshirish;
- Aktivlarni restrukturizatsiya qilish va bozor konyunkturasini bashoratlash, tovarlar va xizmatlarning to‘lovga layoqatli talabi va taklifi asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini diversifikatsiyalash.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilishda kapitalizatsiya jarayoni, ya’ni mavjud salohiyat (aktivlar)dan eng yaxshi foydalanish hisobidan kompaniyaning qiymatini oshirish va shu asosda kapitallashtirishning asosiy manbayini – kapitalni o‘stirishga yo‘naltiriladigan sof foydani o‘stirish alohida o‘rin egallaydi. Sof foydani kapitallashtirish koeffitsiyenti aktiv (kapital)ni oshirishga yo‘naltirilgan sof foyda qismining xo‘jalik yurituvchi

subyekt sof foydasi umumiy hajmiga nisbati bilan aniqlanadi. Uni formula shaklida quyidagicha aks ettirish mumkin:

Kk = (SFkq : SFuh), Bu yerda:

- Kk – sof foydani kapitallashtirish koeffitsiyenti;
- SFkq – aktivlar (kapital)ni oshirishga yo‘naltirilgan sof foydaning qismi;
- SFuh – xo‘jalik yurituvchi subyekt sof foydasining umumiy hajmi.[2]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Malikov, T. M. Moliya: Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. Toshkent, 2010.
2. **Vahobov, A. V., Ishonqulov, N. F., Ibrohimov, A. T. Moliya va boshqaruv tahlili.** Toshkent, «Iqtisod-Moliya», 2013.
3. Qodirov, A. A., Xudoyberganov, I. M. Moliya va kredit tahlili. Toshkent, «Iqtisod-Moliya», 2015.
4. Raximov, Z. A., Soliyev, F. Sh. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. Toshkent, «Iqtisod-Moliya», 2017.

THE USE OF INTERACTIVE PLATFORMS FOR EFFECTIVE FOREIGN LANGUAGE LEARNING

Muslimakhon Muminova Mukhiddin kizi
English teacher,
Tashkent State University of Economics Andijan faculty
Ibrokhimov Shahriyorbek Azamat ugli
First year student,
Tashkent State University of Economics Andijan faculty

The landscape of foreign language learning has changed drastically with the advent of interactive platforms. Traditional language learning methods, such as textbooks and lectures, have evolved to incorporate digital tools that offer greater flexibility, accessibility, and engagement. Among these platforms, Baamboozle and Kahoot stand out as prime examples of how gamified learning environments can enhance language acquisition. These platforms not only provide students with the opportunity to practice vocabulary and grammar but also foster a deeper connection with the language through interactive and competitive elements. This article explores the role of interactive platforms in foreign language education, focusing on the effectiveness of Baamboozle and Kahoot, the impact on student engagement, the